



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha va*
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
chaqiruvga qadar boshlang'ich
tayyorgarlik fani o'qituvchisi

_____ *ning*
20__-20__-o'quv yili 10-sinf uchun
II chorak

DARS
ISHLANMALARI

O‘IBDO‘ _____

2025-2026-o‘quv yili 10-sinf CHQBT fani uchun
II chorak taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa to‘g‘risidagi Qonuni va Mudofaa Doktrinasi	1		
2.	Intizom Nizomi, muddatli harbiy xizmatchilarga qo‘llaniladigan rag‘batlantirish va intizomiy ta‘zirlar	1		
3.	Qurolli to‘qnashuvlar huquqi, Qurolli to‘qnashuvlar huquqining farqlovchi timsol va belgilari.	1		
4.	Qurolli Kuchlar tarkibi va vazifalari	1		
5.	O‘zbekiston Respublikasida fuqaro muhofazasi	1		
6.	Texnogen, tabiiy va ekologik hususiyatli favqulodda vaziyatlar	1		
7.	BSB-2 [50 ball]	1		
8.	Favqulodda vaziyat haqida xabar berish va tasvirlash	1		
9.	Panagohlarning turlari	1		
10.	Filtrlovchi gazniqoblar	1		
11.	Respiratorlar va qo‘lbola himoy vositalari	1		
12.	Terini himoyalovchi vositalar	1		
13.	CHSB-2 [40 ball]	1		
14.	Terini himoyalovchi vositalarini kiyish meyorlari	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa to‘g‘risidagi Qonuni va Mudofaa Doktrinasini Darsning maqsadi:

Ta‘limiy:

O‘zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari safidagi harbiy xizmat huquqiy asoslarining talablari hamda mohiyatini o‘rgatish;
harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va harbiy burchga sadoqatli bo‘lish, mas’uliyat va javobgarlikni shakllantirish;
Vatan mustaqilligi va ravnaqi yo‘lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib voris bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish;

Tarbiyaviy:

umumharbiy nizomlarning harbiy xizmatchilar hayotidagi ahamiyatini, Vatanga qasamyod va uning talablarini anglash;
favqulodda vaziyatlarda harakatlanish, zaruriyat tug‘ilganda o‘ziga hamda yon atrofdagilarga birinchi tibbiy amaliy yordam ko‘rsatish ko‘nikmalarini o‘rgatish;
yosh avlodda qat‘iy hayotiy pozitsiya va Vatan taqdiri uchun daxldorlik mas‘uliyatini shakllantirish;

Rivojlantiruvchi:

yoshlarni o‘z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo‘naltirish;
harbiy burchga va Prezidentiga sadoqatli bo‘lish, xalq taqdiri uchun javobgarlik tuyg‘usini shakllantirish.

II. FK – fanga oid kompetensiyalar

FK1 – Harbiy qonunchilik va harbiy tartibni bilish kompetensiyasi

FK2 – Askarning jangda harakatlanish va jangovar qurol-aslahalardan foydalana olish kompetensiyasi

FK3 – Jismoniy sifatlarini namoyon qila olish kompetensiyasi

FK4 – Favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri va tezkor harakatlanish kompetensiyasi

FK5 – Vatanparvarlik va burchga sodiqlik kompetensiyasi

Birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish kompetensiyasi

Milliy urf-odatlar, o‘zaro muloqot, oilada ota-ona o‘rni, farzand tarbiyasi va burch tushunchalariga ega bo‘lish kompetensiyasi

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o‘quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, o‘quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.

II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi..

III. Yangi mavzu bayoni:

O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa to‘g‘risida”gi Qonuni 2001-yil 11-mayda qabul qilingan. Qonun mudofaani tashkil etishning hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini boshqarishning huquqiy asoslarini belgilaydi



“Mudofaa to‘g‘risida”gi Qonun 5 bo‘lim va 25 moddadan iborat:

1. Umumiy qoidalar

2. Mudofaani tashkil etish hamda Qurolli Kuchlarga rahbarlik qilish

3. Davlat organlarining mudofaa sohasidagi vakolatlari. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolarning mudofaani ta‘minlashdagi ishtiroki

4. Urush holati. Urush davri. Safarbarlik. Hududiy mudofaa. Qurolli mojarolar

5. Yakunlovchi qoidalar

Mudofaa deganda O‘zbekiston Respublikasining suvereniteti, hududiy yaxlitligi, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilishni ta‘minlashning siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ijtimoiy-huquqiy, axborot, tashkiliy tadbirlar majmuyi tushuniladi.

Qurolli Kuchlar

Qurolli Kuchlar urushlar va qurolli mojarolarni qaytarish hamda oldini olish, O‘zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini, suverenitetini, hududiy yaxlitligini hamda aholining tinch hayotini himoya qilish uchun davlat tomonidan tashkil etilgan va saqlab turilgan harbiy birlashma, qo‘shilma va qismlarni, shuningdek, boshqa harbiy tuzilmalarni o‘z ichiga oladi.

Mudofaa sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari:

- boshqa davlatga qarshi harbiy kuch ishlatmaslik, tajovuzning oldini olish va uni daf etish (tegishli shartnomalar bilan bog‘langan davlatlarga yordam ko‘rsatish hollari bundan mustasno);
- xalqaro huquq normalariga muvofiq ravishda jamoat xavfsizlik tizimlarida ishtirok etish;
- harbiy-siyosiy bloklarda qatnashmaslik;
- harbiy qurilishning zamonaviy urushlar va qurolli mojarolarning xususiyatiga monand bo‘lishi;
- yadroviy va boshqa turdagi yalpi qirg‘in qurollarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, olish, saqlash, tarqatish va joylashtirishni rad etish;
- Qurolli Kuchlar, iqtisodiyot, aholi va hududning tajovuzni daf etishga doim shay turishi;
- mudofaaning yetarli darajada bo‘lishi;
- harbiy xizmat sharaflilik ekanligini ta‘minlash

QUROLLI KUCHLARGA RAHBARLIK

Mudofaa va Qurolli Kuchlarga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni rahbarlik qiladi.

Urush davrida O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziri bir paytning o‘zida Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni o‘rinbosari hisoblanadi.

Qurolli Kuchlarning kundalik faoliyatiga rahbarlikni o‘z bo‘ysunuvda Qurolli Kuchlarning tarkibiga kiradigan harbiy tuzilmalari bo‘lgan vazirliklar va idoralarning rahbarlari amalga oshiradilar.

Qurolli Kuchlar oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarish yuzasidan ularga tezkor rahbarlikni Qurolli Kuchlar Bosh shtabining boshlig‘i bajaradi.

O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa to‘g‘risida”gi Qonuni bo‘yicha ma‘lumotlarni yozing

“Mudofaa to‘g‘risida”gi Qonun

Mudofaa sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari

Qurolli Kuchlarga rahbarlik organlari

Mudofaa Doktrinasini O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-yanvardagi 458-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan. O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa Doktrinasini harbiy sohada O‘zbekiston Respublikasi milliy xavfsizligini ta‘minlashga doir prinsiplar va yondashuvlarni belgilaydi.


Doktrina:

- O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Milliy xavfsizlik konsepsiyasi va boshqa qonun hujjatlariga asoslanadi, xalqaro huquq, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining prinsiplari va normalariga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi ishtirokchisi bo‘lgan xalqaro shartnomalarga tayanadi;
- mamlakatning milliy manfaatlaridan, jahon va mintaqadagi harbiy-siyosiy




vaziyatdan, harbiy sohada milliy xavfsizlikka bo'lgan tahdidlar darajasidan, zamonaviy harbiy mojarolarning xususiyatidan kelib chiqadi;

- tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi va mamlakat mudofaasini rejalashtirishga doir boshqa hujjatlarning asosiy qoidalarini inobatga oladi;
- harbiy mojarolarning oldini olish, hayotiy muhim milliy manfaatlarni himoya qilish bo'yicha davlat, jamiyat va fuqarolar faoliyatini tashkil etish yo'nalishlari va usullarini ochib beradi;
- davlatning kelajakda mudofaa siyosatidagi ustuvorliklarini, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini tayyorlash, qurish va qo'llashning asosiy prinsiplari va yo'nalishlarini belgilaydi



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:



V. Darsni yakunlash: o'quvchini yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Intizom Nizomi, muddatli harbiy xizmatchilarga qo'llaniladigan rag'batlantirish va intizomiy ta'zirlar

Darsning maqsadi:

Ta'limiy:

O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari safidagi harbiy xizmat huquqiy asoslarining talablari hamda mohiyatini o'rgatish;
harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va harbiy burchga sadoqatli bo'lish, mas'uliyat va javobgarlikni shakllantirish;
Vatan mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib voris bo'lish tuyg'usini shakllantirish;

Tarbiyaviy:

umumharbiy nizomlarning harbiy xizmatchilar hayotidagi ahamiyatini, Vatanga qasamyod va uning talablarini anglash;
favqulodda vaziyatlarda harakatlanish, zaruriyat tug'ilganda o'ziga hamda yon atrofdagilarga birinchi tibbiy amaliy yordam ko'rsatish ko'nikmalarini o'rgatish;
yosh avlodda qat'iy hayotiy pozitsiya va Vatan taqdiri uchun daxldorlik mas'uliyatini shakllantirish;

Rivojlantiruvchi:

yoshlarni o'z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirish;
harbiy burchga va Prezidentiga sadoqatli bo'lish, xalq taqdiri uchun javobgarlik tuyg'usini shakllantirish.

II. FK – fanga oid kompetensiyalar

FK1 – Harbiy qonunchilik va harbiy tartibni bilish kompetensiyasi

FK2 – Askarning jangda harakatlanish va jangovar qurol-aslahalardan foydalana olish kompetensiyasi

FK3 – Jismoniy sifatlarini namoyon qila olish kompetensiyasi

FK4 – Favqulodda vaziyatlarda to'g'ri va tezkor harakatlanish kompetensiyasi

FK5 – Vatanparvarlik va burchga sodiqlik kompetensiyasi

Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish kompetensiyasi

Milliy urf-odatlar, o'zaro muloqot, oilada ota-ona o'rni, farzand tarbiyasi va burch tushunchalariga ega bo'lish kompetensiyasi

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, o'quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi..

III. Yangi mavzu bayoni:

Intizom Nizomi harbiy intizomning mohiyati, unga rioya qilish bo'yicha harbiy xizmatchilarning majburiyatlari, rag'batlantirish va intizomiy ta'zir turlari, mansabdor shaxslarning ularni qo'llash bo'yicha huquqlari, rag'batlantirish va intizomiy ta'zirlarni qo'llash, ular bo'yicha shikoyat qilish hamda harbiy xizmatchilarning murojaatlarini ko'rib chiqish tartibini belgilaydi.

Harbiy intizom – barcha harbiy xizmatchilarning qonunchilik hujjatlari, harbiy nizomlar



va komandirlar (boshliqlar)ning buyruqlari bilan belgilangan tartib va qoidalarga qat'iy rioya etishi. Harbiy intizom har bir harbiy xizmatchining O'zbekiston Respublikasi davlat suvereniteti va hududiy yaxlitligini himoya qilishga shaxsan javobgarligini, o'z xalqiga nisbatan cheksiz sadoqatini, harbiy va fuqarolik burchini his qilishiga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga qat'iy rioya qilish, Vatan oldidagi qasamyodiga sodiq bo'lish;

- o'z harbiy burchini mohirlik va jasorat bilan bajarish, harbiy ishni vijdonan o'rganish, kasbiy mahoratini oshirish, harbiy va davlat mol-mulkini asrash;
- harbiy xizmat qiyinchiliklarini mardonavor yengish, harbiy burchini bajarish uchun o'z jonini ham ayamalik;
- sergak bo'lish, davlat, harbiy va xizmat sirlarini qat'iy saqlash;
- harbiy xizmatchilar o'rtasidagi harbiy nizomlarda belgilangan o'zaro munosabatlarni qo'llabquvvatlash, harbiy birodarlikni mustahkamlash hamda o'zaro yordam ko'rsatish;
- komandir (boshliq)ga va bir-biriga nisbatan o'zaro hurmat ko'rsatish, harbiycha salomlashish va xushmuomalalik qoidalarga rioya qilish;
- jamoat joylarida o'zini munosib tutish, nomunosib xatti-harakatlardan o'zini va boshqalarni tiyish.

Komandirlar (boshliqlar) rag'batlantirishlarni

alohida harbiy xizmatchiga nisbatan ham,

barcha bo'linma (harbiy qism, muassasa)ning shaxsiy tarkibiga

nisbatan ham qo'llashlari mumkin.

Har bir komandir (boshliq) bitta namunalari ish uchun harbiy xizmatchi

yoki bo'linma (harbiy qism, muassasa) shaxsiy tarkibini faqat

bir marotaba rag'batlantirishga haqli.

Rag'batlantirish turi tanlanganda

harbiy xizmatchi (bo'linma, harbiy qism, muassasa) ko'rsatgan

xizmatning tavsifi yoki ularning

xizmatga qo'shgan shaxsiy hissasi inobatga olinadi.

Muddatli harbiy xizmatchilarga quyidagi rag'batlantirishlar qo'llaniladi:

- minnatdorchilik e'lon qilish;
- ota-onasi, yashash joyi, xizmatgacha bo'lgan ish (o'qish) joyiga harbiy burchini namunalari bajarayotganligi to'g'risida minnatdorchilik xati yuborish;
- faxriy yorliq, qimmatbaho sovg'alar yoki pul mukofoti bilan taqdirlash;
- O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i, Amir Temur jangovar bayrog'i yoki tegishli vazirliklarning bayroqlari yonida olingan fotosurati bilan taqdirlash;
- familiyasini harbiy qismning (muassasaning) "Hurmat kitobi"ga kiritish;
- ta'tilni o'tkazish joyiga borish va qaytib kelish uchun zarur vaqtni hisobga olmagan holda 10 sutkagacha bo'lgan qisqa muddatli ta'til berish;
- idoraviy mukofotlar yoki esdalik nishonlari bilan taqdirlash.




Intizomiy ta'zir harbiy xizmatchiga nisbatan komandir (boshliq)ning qaroriga asosan yozma yoki og'zaki ravishda qo'llaniladi. Harbiy xizmatchilarga nisbatan nojo'ya xatti-harakatlari uchun shaxsga faqat bitta intizomiy ta'zir qo'llaniladi.

Intizomiy ta'zir choralarini qo'llash taqiqlanadi:

- nojo'ya xatti-harakat yoki huquqbuzarlik sodir etilishida aybdor bo'lmagan shaxslarga;
- harbiy xizmatchiga nisbatan ma'muriy javobgarlik chorasi qo'llanilganidan so'ng aynan shu ma'muriy huquqbuzarlik uchun;
- bevosita aybdor shaxslar o'rniga bo'linmaning barcha shaxsiy tarkibiga nisbatan;
- jangovar navbatchilik, garnizon, qorovul va ichki xizmatni o'tash davomida;
- lavozimga tayinlangan kundan boshlab 3 oy davomidagi lavozimga kirishish davrida lavozim majburiyatlarini bajarishda kamchiliklarga yo'l qo'ygan harbiy xizmatchiga nisbatan.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:



V. Darsni yakunlash: o'quvchini yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

35 listdan iborat CHQBT fanidan 10-sinf II chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**